

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI**

**PHD.05/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHIXIYEV RAXIM MUXAMMETOVICH**

**QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA TEXNIKADAN  
SAMARALI FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH  
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

**08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti**

**IQTISODIYOT FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus - 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.Phd/Iqt1850 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullaev Ilyos Sultanovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Arabov Nurali Uralovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shodiev Bekzod Tulkinovich**  
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.L20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «17» may soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; Faks: (99861) 223-60-19; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (131 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; Faks: (99861) 223-60-19; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «2» may kuni tarqatildi.  
(2023-yil «2» may dagi № 25 raqamli registr bayonnomasi).



**J.K.Sauxanov**

darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, professor

**R.B.Utemuratov**

darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, dotsent

**T.Duschanov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon aholisi sonining oshishi hamda buning asosida resurslar tanqisligining keskinlashuvi sharoitida resurslardan samarali foydalanish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlarida optimal yo'nalishlarni tanlash tobora dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Xususan, "aholining birlamchi ehtiyojlarini qondirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, umumiy farovonlikni oshirish, 2050 yilga borib 9,7 milliard aholini to'ydirish loyhasini samarali amalga oshirish o'z yechimini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi"<sup>1</sup>. Shu sababli bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sohada mahsulot yetishtirish jarayonlarini optimallashtirish, tavakkalchilik darajalarini kamaytirish, samaradorlikni oshirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda qishloq xo'jaligida mavjud resurslardan optimal foydalanish masalasini yechishning eng kichik birlik hisoblangan fermer va dehqon xo'jaliklari doirasiga tushirish, ularga ilmiy asosga ega bo'lgan usullar yordamida resurslardan optimal foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va belgilangan me'yorlar darajasida tashkil qilish, xizmatlar samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish, resurslar cheklanganligi sharoitida qo'llaniladigan optimallashtirish masalalarini yechishga ixtisoslashgan maxsus ommabop dasturlarni ishlab chiqish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish, jumladan, xalqaro ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetini tashkil etgan holda ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasidagi maqsadlardan biri sifatida "qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar xo'jaliklar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish"<sup>2</sup> belgilangan. Keltirib o'tilgan maqsaddan kelib chiqqan holda belgilab berilgan vazifalarni samarali yechimiga erishishda sohada qaror qabul qilish jarayonlariga aqlli texnologiyalarni tatbiq qilish, jabhada omillardan foydalanishning optimal hajmini aniqlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni matematik va ekonometrik modellashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishni keng targ'ib qilish

<sup>1</sup> <https://www.worldbank.org/en/topic/agriculture/overview>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-son «2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

va soddalashtirish masalalari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2021-yil 3-fevraldagi PF-6159-son "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida" farmonlari, 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son "Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 7-apreldagi PQ-273-son «O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2022-yil 7-iyuldagi PQ-308-son "Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 7-iyuldagi PQ-307-son "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 1-martdagi PQ-144-son "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 3-apreldagi PQ-5052-son "Davlat organlari va korxonalarini yengil tijorat avtotransport vositalari, maxsus va qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-apreldagi 240-son "Qishloq xo'jaligi texnikasi uchun butlovchi va ehtiyot qismlar ishlab chiqarishni kengaytirish va ularga xususiy xizmatlar ko'rsatadigan obyektlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 15-dekabrda 785-son "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligi texnikasi va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xorijiy davlatlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonidagi omillarni aniqlash, aqlli qishloq xo'jaligini shakllantirish nazariyasi va amaliyoti ko'pgina olimlar va tadqiqotchilar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. Jumladan, K.McNamara, S.Belden, T.Kelli, Ye. Pehu, K.Donovan, H.P.Binsvanger, M.R.Rozenzveig, D.Tomas, S.Volfert, L.Ge, S.Verdouv,

M.J.Bogaardt, N.M.Trendov, S.Varas, M.Zeng, A.Valter, R.Finger, R.Huber, N.Buchmann, T.MakMillan, T.G.Benton, R.Gebbers, V.I.Adamchuk<sup>3</sup> va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida mazkur masalalar tadqiq qilingan.

MDH olimlaridan V.M.Bautin, V.V.Kozlov, A.Koptelov, O.N.Didmanidze, S.N.Devyanin, Ye.P.Parlyuk, A.G.Levshin, M.N.Eroxin, I.N.Shilo, N.K.Tolochko, S.O.Nukeshev, N.N. Romanyuk, K.D.Esoxin<sup>4</sup> va boshqa olimlarning qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, axborot texnologiyalarida hamda texnikalardan foydalanish, aqlli qishloq xo'jalik texnikalarini yaratish va ularni amaliyotga tadbiiq qilish masalalari keng yoritilganligi e'tiborga loyiq.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Gulyamov S.S., Shodiev T.Sh., Abdullaev I.S., Begalov B.A., Doschanov T.D., Ruzmetov B.R., Qo'chqorov T.S., Kenjabaev A.T., Sauxanov J.K., Mirzataev S.M., Utemuratov R.B., Jiemuratov T.P.<sup>5</sup> va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, sohada mahsulot yetishtirish jarayonlarini

<sup>3</sup> K.McNamara, C.Belden, T.Kelly, E.Pehu, K.Donovan, (2011). Introduction ICT in agricultural development. ICT in Agriculture (Updated Edition): Connecting Smallholders to Knowledge, Networks, and Institutions. Washington, DC: World Bank; H.P.Binswanger, M.R.Rosenzweig (1986). Behavioural and material determinants of production relations in agriculture. *The Journal of Development Studies*, 22(3), 503-539.; D.Thomas ICT Applications in Agriculture. DOI:10.1016/B978-0-08-100596-5.22591-2 <https://www.researchgate.net/publication/327006624>; S.Wolfert, L.Ge, C.Verdouw, M.J.Bogaardt (2017). Big data in smart farming—a review. *Agricultural Systems*, 153, 69-80.; N.M.Trendov, S.Varas, M.Zeng 2019. Digital technologies in agriculture and rural areas - Briefing paper. <http://www.fao.org/3/ca4887en/ca4887en.pdf>. Accessed 2nd Sep-tember 2019.; A.Walter, R.Finger, R.Huber, N.Buchmann 2017. Opinion: smart farming is key to developing sustainable agriculture. *Proc. Natl. Acad. Sci.* 114 (24), 6148-6150; T.MacMillan, T.G.Benton, 2014. Agriculture: engage farmers in research. *Nature* 509 (7498), 25-27.; R.Gebbers, V.I.Adamchuk, 2010. Precision agriculture and food security. *Science* 327 (5967), 828-831.

<sup>4</sup> В.М.Баутин, В.В.Козлов и др. Устойчивое развитие сельских территорий. Вопросы стратегии и тактики. М.ФГНУ Росинформагротех. 2004. 312 с.; Коптелов, А. Информационные технологии в сельском хозяйстве / А.Коптелов, О.Оситнянко // *Агробизнес: информатика – оборудование – технологии*. – 2010. – № 12. – С. 60-64. – С. 63.; О.Н.Дидманидзе, С.Н.Деянин, Е.П.Парлюк/ Трактор сельскохозяйственный: вчера, сегодня, завтра/ *Аграрная наука Евро-Северо-Востока /Agricultural science Euro-North-East*, 2020; 21(1):74-85.; А.Г.Леашин, М.Н.Ерохин/ *Научно-методические основы формирования нормированной шкалы твердости почвы*. Вестник Федерального государственного образовательного учреждения высшего профессионального образования "Московский государственный агроинженерный университет имени В. П. Гурьякина". 2017;(6 (82)):28-34. Режым доступа: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=30727976>; И.Н.Шило, Н.К.Толочко, С.О.Нукешева, Н.Н.Романок, К.Д.Есохин *Умная сельскохозяйственная техника: учебное пособие*, – Астана, Издательство КазАТУ им. С.Сейфуллина, 2018. – 174 с.

<sup>5</sup> Gulyamov S.S., Abdullaev A.M., Olimjonov A.U. Vaqtli qatorlarning statistik tahlili va mavsumiy tebranishlarni prognozlashitirish. /В.То'rayevning umumiy tahriri ostida. –Т.: «Fan va texnologiya», 2016, 284 bet; Шодиев Т.Ш. Проблемы моделирования развития сельского хозяйства (на примере Узбекистана): Дис. ...док. экон. наук. Т. 1988. – 380 с.; Abdullaev Yo.A. Statistika nazariyasi. Darslik, -Т.: O'qituvchi, 2002. – 6. 592.; Беркинов Б.Б. Моделирование систем ведения сельского хозяйства. - Т.: Фан, 1991.; Begalov B.A. Axborot kommunikatsiyalar bozoriging shakllanishi va rivojlanish tendentsiyalarini ekonometrik modellashitirish. iqt.fan.dok.diss. –Т.: TDIU. 2001. – 330 б; Досчанов Т.Д. Экономико-экологические основы производства и применения продукции химической промышленности в АПК. дисс. на соис. докт. экон. наук. Т.: 1990. – 405 с., Рuzmetov B.P. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дисс. ...док. эк. наук. - Т.: 1998. - 39 с.; Abdullaev I.S. Mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishning mexanizmlarini takomillashitirish. iqt.fan.dok. avtoref. - Т.: TDIU. 2017. - 66 б, Kenjabaev A.T. Эконометрическое моделирование развития промышленности города: на примере города Алматы: Дис... канд. экон. наук. - Т., 1990.; Sauxanov J.K. Ekologik vaziyat murakkab xudud qishloq xo'jaligida tashqi samaralar va transaktsion xarajatlarni optimal tartiblashitirish mexanizmlari: monografiya / J.K. Sauxanov. «Lesson Press», Toshkent 2022. – 261 b.; Mirzataev S.M. Qishloq xo'jaligida axborot texnologiyalaridan foydalanish yo'nalishlaridan foydalanish yo'nalishlarini takomillashitirish: monografiya / S.M. Mirzataev "Lesson Press", Toshkent 2022 y. – 122 b.; Utemuratov R.B. Investitsiya loyihalari samaradorligini oshirishda axborot tizimlari va texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish: monografiya / R.B.Utemuratov "Lesson Press", Toshkent 2022 y. – 154 b.

modellashdirish, qishloq xo'jaligida optimal yechimlarni ta'minlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish, istiqboldagi ko'rsatkichlarni ekonometrik modellar asosida prognozlashning nazariy-uslubiy hamda ilmiy-amaliy muammolari atroflicha tadqiq etilgan.

Biroq, mazkur tadqiqotlarda, qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirishda axborot texnologiyalarini joriy qilish masalalari umumiy holda tadqiq qilingan, yer resurslaridan foydalanish va ular samaradorligini oshirishda traktorlar rolini baholashda ekonometrik va optimizatsion modellarini qo'llash, buni axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda soddalashtirish, maxsus dasturlar yaratish masalalari yetarlicha o'rganilmaganligi sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etishi mazkur mavzuning tadqiqot ishi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Qoraqalpog davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** qishloq xo'jaligini rivojlantirishda texnikadan samarali foydalanishni takomillashtirgan holda resurslardan optimal foydalanish yechimlarini aniqlash, xo'jaliklar daromadini oshirish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

barqaror qishloq xo'jaligini shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq qilish va aqlli qishloq xo'jaligini rivojlantirishning obyektiv zaruriyatini asoslash;

qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribalarini o'rganish va ularni Qoraqalpog'iston Respublikasida qo'llash imkoniyatlarini aniqlash;

Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi rivojining statistik tahlilini amalga oshirish hamda texnikalaridan foydalanish samaradorligini baholash;

qishloq xo'jaligi texnikalaridan foydalanishni aqlli texnologiyalar asosida optimallashtirish yo'nalishlarini aniqlash;

aqlli texnologiyalari asosida traktorlardan foydalanish samaradorligini oshirish istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash;

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi va uning sohalari rivojlanishining o'zaro ta'siri kompleks o'zgaruvchili modellar yordamida baholash hamda prognozlash ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyektini** sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jalik mahsulot yetishtiruvchi subyektlar hamda agrotexnik tadbirlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar olingan.

**Tadqiqot predmetini** qishloq xo'jaligida agrotexnik tadbirlar samaradorligini oshirish, xarajatlarni minimallashtirishda texnikadan samarali foydalanish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ilmiy abstraktsiya, tahlil, omilli tahlil, sintez, induksiya va deduksiya, chiziqli dasturlash, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, ARIMA modeli, regression va korrelyatsion tahlil, kompleks o'zgaruvchili modellashdirish, optimizatsion modellarni yechishning Lagranj va Simpleks usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

texnikalarni xarid qilishga kiritilgan investitsiyalarning yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishga ta'siriga ko'ra fermer va dehqon xo'jaliklari bo'yicha aniqlangan tafovut asosida har bir xo'jalik yuritish shakli bo'yicha texnikadan samarali foydalanish me'yorlari taklif etilgan;

qishloq xo'jalik yuritish shakllari bo'yicha texnika parkining samarali tarkibiy tuzilmasini shakllantirish imkonini beruvchi "Cluster automation information system" modeli yordamida agrotexnikadan foydalanish xarajatlarini minimallashtirishning optimal yechimiga erishishni ta'minlash taklifi asoslangan;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayoniga aqlli texnologiyalarni joriy etish asosida fermer xo'jaliklarida har bir gektar yemi haydashga sarflanadigan xarajetni (9,6-19,8 foizga) kamaytirish, dizel yonilg'isi va ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini (16,3-18,1 foizga) oshirishni ta'minlovchi optimallashtirish ko'rsatkichlari asoslangan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning kompleks o'zgaruvchili modeli yordamida 2026-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jalik texnikalarini xarid qilish va ulardan foydalanishning fermer va dehqon xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi va ulushiga ta'sirini baholash imkoniyati yaratib berilgan;

fermer va dehqon xo'jaliklari darajasida agrotexnik tadbirlarni belgilangan me'yorlar darajasida tashkil qilish, zaruriy traktor turini tanlash hamda xarajatlarni minimallashtirish hisobidan optimallashtirishni ta'minlovchi dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan;

aqlli texnologiyalardan foydalangan holda Sho'manoy tumanidagi fermer xo'jaliklari faoliyatini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish hamda dizel yonilg'isidan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni kompleks o'zgaruvchili modeli yordamida uzoq muddatli istiqboldagi rivojlantirish ko'rsatkichlari baholangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuv, xususan, miqdoriy usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi davriy hisobotlaridan olinganligi, amalga oshirilgan tadqiqot natijalari hamda tajriba-sinov ishlari samaradorligi, tadqiqot natijalari sifatida taklif qilingan hamda amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llanilgan dastur va uning asosida olingan natijalar ekonometrik va statistik usullar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qoraqalpog'iston Respublikasida texnikalarni xarid qilishga kiritilgan investitsiyalarning yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishdagi

ta'sirini baholash, agrotexnik tadbirlarni belgilangan me'yorlar darajasida tashkil qilish, zaruriy traktor turini tanlash hamda xarajatlarni minimallashtirish, fermer xo'jaliklari faoliyatini optimallashtirishga doir dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va undan amaliyotda foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalarning qishloq xo'jaligida ekonometrik modellardan axborot texnologiyalari asosida foydalanish yo'nalishlarini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslarini rivojlantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyadagi statistik usullar, optimizatsion va ekonometrik modellar, ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot, taklif va xulosalardan fermer va dehqon xo'jaliklarida agrotexnik tadbirlarni axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil qilish asosida o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan istiqbolli dasturlarni mintaq va davlat miqyosida ishlab chiqish, tuproq tarkibini yaxshilash va samaradorligini oshirish bilan bog'liq jarayonlarni tezlashtirish, oliy ta'lim muassasalarida "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Agrosanoat majmuasi" fanlarini o'qitishda va sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda axborot tizimlaridan samarali foydalanishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

texnikalarni xarid qilishga kiritilgan investitsiyalarning yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishga ta'siriga ko'ra fermer va dehqon xo'jaliklari bo'yicha aniqlangan tafovut asosida har bir xo'jalik yuritish shakli bo'yicha texnikadan samarali foydalanish me'yori Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan "Tumanlar qishloq xo'jaligi texnikalarining ekspluatatsiya sarflari va ulardan foydalanish samaradorligi me'yorlarini belgilashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 5-dekabrda 03/016-3536-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishiga fermer va dehqon xo'jaliklari ulushining ta'sirini baholash imkoniyati yaratilgan;

qishloq xo'jalik yuritish shakllari bo'yicha texnika parkining samarali tarkibiy tuzilmasini shakllantirish imkonini beruvchi "Cluster automation information system" modeli yordamida agrotexnikadan foydalanish xarajatlarini minimallashtirishning optimal yechimiga erishishni ta'minlash taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan "Tumanlar qishloq xo'jaligi texnikalarining ekspluatatsiya sarflari va ulardan foydalanish samaradorligi me'yorlarini belgilashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 5-dekabrda 03/016-3536-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida qishloq xo'jaligida agrotexnika xarajatlarini minimallashtirish masalasini yechishning soddalashtirilgan dasturini amaliyotga joriy qilish imkoni yaratilgan;

Sho'manoy tumanidagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayoniga aqlli texnologiyalarni joriy etish asosida fermer xo'jaliklarida har bir gektar yerni haydashga sarflanadigan xarajati (9,6-19,8 foizga) kamaytirish, dizel yonilg'isi va



ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini (16,3-18,1 foizga) oshirishni ta'minlovchi optimallashtirish ko'rsatkichlaridan foydalanish taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan "Tumanlar qishloq xo'jaligi texnikalarining ekspluatatsiya sarflari va ulardan foydalanish samaradorligi me'yorlarini belgilashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 5-dekabrda 03/016-3536-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida Sho'manay tumanida aqlli texnologiyalarni fermer xo'jaliklari faoliyatiga qo'llangan holda belgilangan talab doirasida va shunga mos bo'lgan traktorlarda yer haydashni tashkil qilish asosida xarajatlarni 9,6 foizdan 19,8 foizga qadar kamaytirish, dizel yonilg'isidan foydalanish samaradorligini 16,3 foizdan 18,1 foizga qadar oshirish imkoni yaratilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning kompleks o'zgaruvchili modeli yordamida 2026-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi hamda texnikadan foydalanish bo'yicha istiqbol dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 5-dekabrda 03/016-3536-son ma'lumotnomasi). Mazkur prognoz natijalari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi hamda texnikadan foydalanish bo'yicha istiqboldagi ko'rsatkichlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkonini yaratgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 5 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAKning doktrinka dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta maqola (5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan EHM uchun yaratilgan dastur va ma'lumotlar bazasining rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda texnikadan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida

barqaror qishloq xo'jaligini shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy – uslubiy asoslarini tadqiq qilish va aqlli qishloq ho'jaligini rivojlantirishning obyektiv zaruriyati asoslangan, qishloq ho'jaligini rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribalarini o'rganish va ularni Qoraqalpog'iston Respublikasida qo'llash imkoniyatlari aniqlangan.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi sohasida cheklangan resurslar bilan hosildorlikni oshirishga duch kelmoqdalar va buning uchun qishloq xo'jaligi texnikasidan keng foydalanish eng samarali usullardan biridir. Qishloq xo'jaligi texnikasi odatda yuqori narxlarni talab qiladi va kichik fermerlar uchun ularni sotib olish iqtisodiy jihatdan qiyin bo'ladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mavsumiy jarayon bo'lib, hosilga ish vaqti ta'sir qiladi. Shuning uchun qishloq xo'jaligini texnika bilan o'z vaqtida ta'minlash hosildorlik samarasini oshiradi. Qishloq xo'jaligi texnikasi butun ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida, masalan, haydash, ekish va hosil yig'ishda, ayniqsa, yirik ishlab chiqarishda zamonaviy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kafolatlovchi asosiy kuch hisoblanadi<sup>6</sup>. Qishloq xo'jaligi mashinalari dispetcherlik xarajatlarini minimallashtirish uchun klasterlar bo'ylab yo'naltirish zarur. Bu esa, qishloq xo'jaligi texnikasini tejamkorligini oshirish bilan birga vaqtdan samarali foydalanishga imkoniyat yaratadi. Mintaqada klasterlar qishloq xo'jaligi tejamkor texnikalarini to'g'ridan-to'g'ri sotib olishga qodir bo'lmagan kichik fermerlar uchun samarali texnologiyalardan foydalanishni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligi texnikasi har doim o'rim-yig'im mavsumida yuqori haroratli qattiq muhitda murakkab yerlarda ishlab chiqarish vazifalarini bajarish uchun yuqori intensiv operatsiyalarni bajaradi, bu esa foydalanishning ko'payishi va atrof-muhit omillari ta'sirida texnikaning muqarrar ravishda buzilishi va ishdan chiqishiga olib keladi, shuning uchun qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqaruvchisi noto'g'ri ishlayotgan mashinalarga tez va ishonchli javob berish uchun samarali va moslashuvchan mahsulotlarga xizmat ko'rsatish tizimini ishlab chiqish juda muhimdir. Texnikalardan samarali foydalanishda eng avvalo, aqlli texnologiyalarni jalb etish, AKT xizmatlarini ko'rsatish yordamida yerning ahvoli, iqlimni harorati, ekin turlari va ularni prognoz ko'rsatklarini aniqlab olinadi. Natijada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish munosabatlarida duch keladigan muammolarni hal qilish salohiyatiga ega bo'lgan, iqlim o'zgarishi hamda ekologik omillar natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan turli xavflar, mavsumiylik, yuqori transaksiya xarajatlari, axborot assimetriyasi bo'yicha zaruriy ma'lumotlarni etkazib berish va boshqaruvni yuqori darajada tashkillashtirish imkoniyatini yaratildi.

Zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari butun qishloq xo'jaligida yuqori qiymat zanjiriga ega bo'lishda mahsulotlar nobudgarchiligini oldini olishda eng muhim masala hisoblendi. Qishloq xo'jaligi yuqori qiymat zanjirini yaratishda texnika samardorligini oshirishda aqlli texnologiyadan foydalanish jarayonini quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasm).

<sup>6</sup> Banerjee S., Puneekar RM. A sustainability-oriented design approach for agricultural machinery and its associated service ecosystem development. *J. Clean. Prod.*, 264 (2020), Article 121642



1-rasm. Qishloq xo'jalidagi qiymat zanjirda aqlli texnologiyalardan foydalanishning tipik shakli<sup>7</sup>

<sup>7</sup> Thomas.D. ICT Applications in Agriculture. DOI:10.1016/B978-0-08-100596-5-22591-2. <https://www.researchgate.net/publication/327006624>

Bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish hamda yaxshiroq boshqarish imkoniyatini yaratib beradi. Bundan tashqari ishlab chiqarilgan mahsulotni tashish, saqlash, qayta ishlash va realizatsiya qilish jarayonlarini osonlashtirish uchun foydalanish mumkin.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishdagi asosiy muammolaridan biri bu joylashuv bo'yicha ma'lumotlarga yuqori darajadagi ehtiyojdir. Global joylashishni aniqlash tizimlari (GPS) va sensorlarning rivojlanishi ushbu muammoni hal qilishga yordam beradigan aniq dehqonchilik (Precision agriculture)ni shakllanishiga olib keldi. Aniq dehqonchilik qishloq xo'jalik texnikalari (traktorlar, purkagichlar va o'rim-yig'im kombaynlari)ni joylashishini aniqlash tizimi, dasturiy ta'minot va o'zgaruvchan tezlik texnologiyasi bilan jihozlangan bo'lishini talab qiladi, bu esa o'g'itlar, agrokimyoviy moddalar va boshqa omillarning o'zgaruvchan normalarini qo'llash imkonini beradi.


Sug'urta xizmatlarini rivojlantirish qishloq xo'jaligi mahsulot ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy zaifligini kamaytirishga xizmat qiladi, ammo fermerlarni sug'urta bilan ta'minlash, xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda murakkab masalalar hisoblanadi. Chunki sug'urtalanganlarning katta guruhini bir vaqtning o'zida qurg'oqchilik kabi qishloq xo'jaligi ofatidan ta'sirlanishi xavfi yuqori.

Shuningdek, agroteknik xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish va nazorat qilishda ham aqlli texnologiyadan foydalanish masalasi muhim. Jahon tajribasiga ko'ra kichik fermer xo'jaliklarida traktorlardan foydalanishda vaqt va tejamkorlik muammosi kelib chiqadi. Ijaraga xizmat ko'rsatish bozorlarining institutsional imkoniyatlari mexanizatsiyalashgan mamlakatlar tarixida katta rol o'ynashini hisobga oladigan bo'lsak bu muammoning dolzarbligini ko'rish mumkin. Traktor egalari ko'pincha kichik fermerlarga xizmat ko'rsatishni istamaydilar, Chunki bu yuqori transaksiya xarajatlarini o'z ichiga oladi<sup>8</sup>. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra axborot-kommunikatsiya texnologiyalar ilovalari traktor xizmatlarini taqdim etish va ulardan foydalanishdagi transaksion xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Yoqilg'i darajalari, moylash nuqtalari va filtrlarni kuzatuvchi sensorlar bilan birlashtirilgan aqlli texnologiyalardan foydalangan holda mashinalarga texnik xizmat ko'rsatishda ham yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, kuzatuv moslamasi va traktorlarga birlashtirilgan sensorlardan foydalangan holda qishloq xo'jaligi pudratchilari va yirik fermer xo'jaliklari egalari parklarni boshqarish uchun ishlatilishi mumkin. Qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan texnikalar juda ko'p va xilma-xil bo'lib, asosiy texnologiyalar beshta texnologiya atrofida birlashishga moyildir (2-rasmga qarang).

Hozirda sun'iy yo'ldosh navigatsiyasi nafaqat qishloq xo'jaligi, balki boshqa sohalarda muhim hisoblanadi, bunda global joylashuvni aniqlash (GPS) ham global sun'iy yo'ldosh navigatsiya (Galileo) tizimlaridan keng foydalaniladi. Robotlardan qishloq xo'jaligidagi muhim tadbirlar ekish, begona o'tlardan tozalash hamda yig'im terimda foydalanish ancha samarali hisoblanadi. Chunki, robotlar an'anaviy

<sup>8</sup> Daum, T., & Birner, R. (2017). The neglected governance challenges of agricultural mechanisation in Africa—insights from Ghana. *Food Security*, 9(5), 959-979.

texnikalarga nisbatan engilroq bo'lib, sug'orma dehqonchilikda tuproq siqilishi muammosini kamaytiradi.



**2-rasm. Qishloq xo'jaligini shakllantirishda zamonaviy texnikalar jamlanmasi**

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, resurslar tanqisligi oshayotgan, shu bilan birga sohada etishtirilgan mahsulotga talab ham o'sib borayotgan bir davrda samaradorlikni oshirish, mahsulotlarning resurs sig'imini innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda salmoqli hissaga ega bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlarida sohani rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha keyingi yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar qarab chiqildi. AQSHda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlash masalalari Qo'shma Shtatlar qishloq xo'jaligi departamenti tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur departament sohani rivojlantirish bo'yicha strategik dasturlar ishlab chiqadi va ularni amaliyotga tadbii qiladi. Departament 2018-2022 yillarda qishloq xo'jaligini Strategii rivojlantirish rejasini ishlab chiqqan va unda yettita strategii maqsadni belgilab oldi. Ushbu maqsadlar AQSHda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning asosii yo'nalishlarini ko'rsatadi. Birinchi maqsad dasturlarini yaxlitlik va mijozlarga xizmat ko'rsatish asosida samarali amalga oshirishga bag'ishlanadi. Ikkinchi strategii maqsad esa Amerika qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarining dunyoni oziqlantirish va kiyintirish orqali rivojlanish qobiliyatini maksimal darajaga oshirishni nazarda tutadi. Uchinchi strategii maqsad bevosita ikkinchisini to'ldiradi, ya'ni unda AQSH qishloq xo'jalik mahsulot ishlab chiqaruvchi va eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash masalasi va bunga erishish uchun qilinishi zarur bo'lgan vazifalar belgilangan. To'rtinchi strategii maqsadda qishloq faravonligi va iqtisodii rivojlanishiga ko'maklashish masalasi qo'yilgan bo'lib, bunda qishloqlarda infratuzilmani rivojlantirish hamda ishchi kuchini saqlab qolish, kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish vazifalari belgilangan.

Beshinchi maqsadda yer fondini boshqarishda texnologiyalarni joriy qilish va bu yo'nalishlardagi tadqiqotlarni rivojlantirish masalasi qo'yilgani holda nazariya va amaliyotdagi hamohanglikni ta'minlash hamda innovatsion jarayonlarni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Oltinchi maqsadda texnologiya va tadqiqotlar orqali xususii yerlarni boshqarishni kuchaytirish masalasi qo'yilgan. Va nihoyat yettinchi maqsadda sog'lom ovqatlanish, kam daromadli aholi uchun to'yimli oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish, oziq-ovqatdan kasallanishni oldini olish va

aholi salomatligini ta'minlash masalalariga yettinchi strategik maqsadda belgilangan vazifalar hisoblanadi.

Xitoyda qishloq xo'jaligidagi islohotlarning dastlabki ko'rinishi 1978-1984 yillarda amalga oshirildi, ya'ni uy xo'jaligi mas'uliyati tizimi UXMT (household responsibility system (HRS)) nomi bilan yerlar uy xo'jaliklariga undagi a'zolar va ishchi kuchi sonidan kelib chiqqan holda shartnoma asosida berildi. Bunda yerga egalik qilish jamoa ixtiyorida qolgan bo'lsada, nazorat qilish va daromad olish huquqi jismoniy shaxslarga berildi. Dastlab yer shartnomasi muddati 15 yil qilib belgilandi. Birinchi muddat 1990-yillarning oxirida tugadi va ikkinchi muddat boshlandi va 30 yilga uzaytirildi. Bugungi kunda hukumat ikkinchi shartnoma muddati tugagandan keyingi bosqichni qanday tashkil qilish masalasini yechishga harakat qilmoqda. Mazkur tajriba qishloq xo'jaligi mahsuldorligi hamda yerlarni taqsimlashda adolatni ta'minlashga xizmat qildi va qashshoqlikni kamaytirishda yaxshi samara berdi.

Yevropa mamlakatlari ichida Angliyaning qishloq xo'jaligi o'ziga xos bo'lib, boshqa mamlakatlarga nisbatan ajralib turadi. Bundan tashqari ushbu mamlakatlarda bozor qonunlari boshqalarga nisbatan yuqori darajada amal qiladi. Shu sababli keyingi davrda qishloq xo'jaligini rivojlantirish rejasida keltirilgan maqsad va yo'nalishlarni ko'rib chiqamiz.

Unga ko'ra 2021-yil 1-yanvardan boshlab o'tish davri boshlanishi belgilangan bo'lib, 2021-2027 yillarda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha maqsadsiz bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri to'lovlarni kamaytirib borish va to'xtatish masalasi qo'yilgan. Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashni kamaytirish evaziga shakllangan mablag'ni turli maqsadli yo'llar bilan sarflash masalasi qaralmoqda. Jumladan, fermerlarga atrof-muhitni yaxshilash, hayvonlar salomatligini va faravonligini yaxshilash hamda uglerod chiqindilarini kamaytirish uchun to'lashga o'tiladi.

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, mamlakatimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish amaliyotini takomillashtirishda Xitoy tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari xavfsiz qishloq xo'jaligini tashkil etish, uning atrof muhitga ta'sirini kamaytirishda Angliya tajribasi qo'l keladi.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligini joriy holati tahlili va texnikalaridan foydalanish samaradorligini miqdoriy baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobida Qoraqalpog‘iston Respublikasida qishloq xo‘jaligi rivojining statistik tahlili amalga oshirilgan, tarmoq texnikalaridan foydalanish samaradorligi baholangan, qishloq xo‘jaligi texnikalardan foydalanishni aqli texnologiyalar asosida optimallashtirish yo‘nalishlari aniqlangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik muammolarning keskinlashuvi, yerlar degredatsiya darajasining oshib borishi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish bilan bog‘liq muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Yer resurslar tanqisligini kuchayishi mahsulot yetishtirishda intensiv usullardan foydalanish, jumladan texnologiyalardan samarali foydalanish muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Ma‘lum bo‘lishicha mintaqada qishloq

xo'jaligida foydalanadigan texnikalarini xarid qilishda kiritilgan investitsiyalar hajmi keyingi yillarda pasayganligini va ayni holatni sotib olingan traktorlar sonida ham kuzatish mumkin. Biroq ikkala ko'rsatkichning pasayishining turli yillarga to'g'ri kelishi ular orasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatmoqda (1-jadval).

Qoraqalpog'iston Respublikasiga qishloq xo'jaligida foydalanadigan texnikalarini xarid qilishda kiritilgan investitsiyalar o'zgarishida umumiy tendensiya mavjud emas va o'zgarishlardagi keskinlikning yuqori qiymatga ega. Traktorlar sonidagi o'zgarishda ham shunga umumiy tendensiya mavjud emas va qizig'i ikkala ko'rsatkichning o'zgarishida bog'liqlik mavjud emas, aslida esa normal holatda ikkala ko'rsatkich orasida bog'liqlik ta'minlanishi kerak edi.

1-jadval

Korrelyatsion tahlil natijalari<sup>9</sup>

	Y1	Y2	X11	X12	X21	X22	X23	X31	X32
Y1	1,00								
Y2	-0,47	1,00							
X11	0,76	-0,77	1,00						
X12	-0,76	0,77	-1,00	1,00					
X21	0,67	-0,70	0,93	-0,93	1,00				
X22	-0,65	0,56	-0,84	0,84	-0,96	1,00			
X23	-0,06	0,44	-0,29	0,29	-0,15	-0,15	1,00		
X31	0,09	-0,12	-0,02	0,02	-0,34	0,41	-0,22	1,00	
X32	-0,23	0,62	-0,25	0,25	-0,18	0,22	-0,13	-0,44	1,00

Bu yerda: Y<sub>1</sub> - qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan (foizda); Y<sub>2</sub> - har bir gektar ekin maydoniga to'g'ri keladigan mahsulot qiymati (mln. so'm); X<sub>11</sub> - yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishda dehqonchilik ulushi (foizda); X<sub>12</sub> - yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishda chorvachilik ulushi (foizda); X<sub>21</sub> - yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishda fermer xo'jaliklari ulushi (foizda); X<sub>22</sub> - yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari ulushi (foizda); X<sub>23</sub> - yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ulushi (foizda); X<sub>31</sub> - qishloq xo'jaligida foydalanadigan texnikalarini xarid qilishda kiritilgan investitsiyalar (ming dollar); X<sub>32</sub> - sotib olingan traktorlar soni (ta).

Mazkur ko'rsatkichlarning qishloq xo'jaligi rivojini ifodalovchi hamda unga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarga ta'siri ham qarab chiqildi va hech biri bilan bog'liqlikka ega emasligi aniqlandi. Ammo, shuni alohida ta'kidlash kerakki, texnikalarni xarid qilishga kiritilgan investitsiyalar yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishda fermer xo'jaliklari ulushi bilan zaif va teskari bog'liqlikka ega bo'lmoqda, ya'ni korrelyatsiya koeffitsienti -0,34 ni tashkil qilmoqda. Boshqa tomondan esa dehqon xo'jaliklarining ulushi bilan musbat bog'liqlik (0,41) aniqlandi. Traktorlar sonidagi o'zgarishning har bir gektar ekin maydoniga to'g'ri keladigan mahsulot qiymati bilan bog'liqlik darajasi nisbatan

<sup>9</sup> Manba: muallif ishlanmasi

yuqori, ammo korrelyatsiya koeffitsienti (0,66) ahamiyatli darajada emas. Bundan tashqari traktorlar sonidagi o'zgarish ahamiyatsiz darajada bo'lsa ham, dehqonchilik ulushi bilan teskari, chorvachilik ulushi bilan to'g'ri bog'liqlikka ega bo'lmoqda.

Ushbu natijalarga aniqlik kiritish maqsadida qishloq xo'jaligida foydalanadigan texnikalarni xarid qilishga kiritilgan investitsiyalar va sotib olingan traktorlarning yalpi mahsulot hajmiga ta'siri regression tahlil asosida qarab chiqildi. Ammo, aniqlangan koeffitsientlar belgilangan mezonlar bo'yicha adekvat emas. Jumladan, traktorlar sonidagi o'zgarishni yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining real qiymatiga ta'siri quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.

$$\ln(AGRP_t) = 0,54 - 0,005 * \ln(TR) + 0,94 * \ln(AGRP_{t-1})$$

$$t = (0,75) \quad (-0,09) \quad (7,80)$$

$$R^2 = (0,92) \quad DW = -1,81$$

Shu sababli qishloq xo'jaligiga kiritilayotgan investitsiyalar hamda texnikadan foydalanishning sohalarga ta'siri ham qarab chiqildi. Yetishtirilgan dehqonchilik mahsuloti qiymatiga ikkala omil ta'sirini bir vaqtda qarab chiqadigan bo'lsak, quyidagi modelga ega bo'lamiz.

$$\ln(CROPP) = 0,79 * \ln(TR) + 0,21 * \ln(INUS)$$

*Bu yerda: CROPP – yetishtirilgan dehqonchilik mahsuloti qiymatining real miqdori mlrd. so'm.*

Ishlab chiqilgan modelning adevatligini asoslash uchun zarur bo'lgan mezonlar quyidagi 2-jadvalda keltirib o'tilgan.

## 2-jadval

### Regression tahlil natijalari<sup>10</sup>

Модель 38: МНК, использованы наблюдения 2010-2021 (Т = 12)

Зависимая переменная: I\_CROPP

	Кoeffициен t	Ст. ошибка	t- статистика	p-значение	
I TR	0,791199	0,0908827	8,706	<0,0001	***
I INUS	0,207987	0,0671518	3,097	0,0113	**
Среднее завис. перемен	6,500650		Ст. откл. завис. перем	0,169571	
Сумма кв. остатков	0,781305		Ст. ошибка модели	0,279518	
Нецентрированный R- квадрат	0,998460		Центрированный R- квадрат	-1,470165	
F(2, 10)	3242,245		F-значение (F)	8,66e-15	
Лог. правдоподобие	-0,637085		Крит. Акаике	5,274170	
Крит. Шварца	6,243983		Крит. Хеннана-Куинна	4,915110	
параметр rho	0,087666		Стат. Дарбина-Уотсона	1,674008	

Ishlab chiqilgan modellar barcha mezonlar bo'yicha adekvat bo'lib, ikkala omilning bir vaqtda bir foizga oshishi yetishtirilgan dehqonchilik mahsuloti qiymatini ham bir foizga oshirishini ta'minlaydi.

Chorvachilik mahsuloti hajmiga ikkala omil ta'sirini bir vaqtda qarab

<sup>10</sup> Manba: muallif ishlanmasi



chiqadigan bo'lsak, quyidagi modelga ega bo'lamiz.

$$\ln(LIVESTOCKP) = 0,83 * \ln(TR) + 0,18 * \ln(INUS)$$

*Bu yerda: LIVESTOCKP – ishlab chiqilgan chorvachilik mahsulotlari hajmining real qiymati mlrd. so'm.*

Ishlab chiqilgan modelning adekvatligini asoslash uchun zarur bo'lgan mezonlar quyidagi 3-jadvalda keltirib o'tilgan.

Ishlab chiqilgan modellar barcha bo'yicha adekvat bo'lib, ikkala omilning bir vaqtda bir foizga oshishi etishtirilgan chorvachilik mahsuloti qiymatini 1,01 foizga oshirishini ta'minlaydi.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha mintaqada qishloq xo'jaligida texnikalardan foydalanish talab darajasida emas, jumladan ularning jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hamda har bir gektar ekin maydoniga to'g'ri keladigan mahsulot qiymatiga ta'siri ahamiyatsiz darajada ekanligi aniqlandi.

**3-jadval**

### Regression tahlil natijalari <sup>11</sup>

Модель 46: МНК, использованы наблюдения 2010-2021 (Т = 12)


Зависимая переменная: I LIVESTOCKP

	Коэффициент	Ст. ошибка	t-статистика	p-значение	
I TR	0,833634	0,0946637	8,806	<0,0001	***
I INUS	0,177017	0,0699455	2,531	0,0298	**
Среднее завис. перемен	6,503101		Ст. откл. завис. перем		0,254579
Сумма кв. остатков	0,847667		Ст. ошибка модели		0,291147
Нецентрированный R-квадрат	0,998332		Центрированный R-квадрат		-0,189019
F(2, 10)	2992,621		P-значение (F)		1,29e-14
Лог. правдоподобие	-1,126217		Крит. Акаике		6,252433
Крит. Шварца	7,222247		Крит. Хеннана-Куинна		5,893374
параметр rho	0,123300		Стат. Дарбина-Уотсона		1,383653

Fikrimizcha, mavjud texnikalarni sotib olish va ulardan foydalanishni tashkil qilishda zamonaviy aqlli texnologiyalarni qo'llash asosida samaradorligini oshirish istibolli yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli qishloq xo'jaligi texnikalardan foydalanishni aqlli texnologiyalar asosida optimallashtirish yo'nalishlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratib o'tildi.

Qishloq xo'jaligida axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish bugungi raqamli iqtisodiyotga o'tish bosqichida dolzarb mavzulardan biri bo'lganligi sababli qishloq xo'jaligi texnikalaridan foydalanish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan axborot tizimi ishlab chiqildi. Tizimning eng asosiy sahifasi optimallashtirish deb nomlangan bo'lib, mazkur sahifada foydalanuvchi kiritgan ma'lumotlarga mos ravishda 5 turdagi qishloq xo'jaligi texnikalarining qaysi biridan foydalanish samarali bo'lishi haqida natija chiqarilib beriladi (3-rasm).

<sup>11</sup> Manba: muallif ishlanmasi



## Optimal yechimni topish

Umumiy yer maydonini kiriting (ga)

10000

Ishchilar sonini kiriting

10 ishchi

Dizel yonilg'i narxini kiriting

100000000

Dizel yonilg'i miqdorini kiriting (litrlar)

1000000

Paxta uchun ajratilgan maydon (ga)

200

10 haqiqi kiriting

10000

Hisoblash

### 3-rasm. Tizimning optimal yechimni hisoblab berish sahifasi<sup>12</sup>

Bu sahifada foydalanuvchida mavjud yer maydoni, dizel yonilg'i miqdori, ishchilar soni, shuningdek, paxta ekish uchun ajratilgan yer maydoni haqidagi ma'lumotlar kiritiladi va simpleks algoritmini qo'llagan holda tizim foydalanuvchi uchun optimal yechimni hisoblab beradi. Natija ikki qismga ajratilgan bo'lib, birinchi qism quyidagi ko'rinishga ega (4-rasm).

### Hisoblash natijalari

Traktorlarning haydashi kerak bo'lgan yerlari			
№	Traktor turi	Haydaladigan yer (ga)	Xarajat (so'm)
1	MAGNUM 8940	0	0.00
2	MX 255	0	0.00
3	AXION 850   ARION 620C   HOLLAND T7060   TS 135	200	113 260 000.00
4	NEW HOLLAND TDS110   TTS-100SP   TTZ-100K	761	403 715 143.45
5	TTZ U 62	19	6 604 900.67
Umumiy natijalar		1 000	526 580 044.12

### 4-rasm. Foydalanuvchi uchun optimal yechimni birinchi qismi<sup>13</sup>

Birinchi qismida qaysi turdagi texnika yordamida qancha yerni haydash kerakligi va buning uchun qancha miqdorda harajatlar sarflanishi (so'mda) haqidagi ma'lumotlar chiqariladi. Ikkinchi qismida esa (5-rasmga qarang) sarflanadigan fizik harajatlar haqidagi ma'lumotlar chiqariladi.

Resurslar sarfi			
№	Mahsulot turi	Sarflanadigan miqdor	Mavjud bo'lgani
1	Umumiy haydaladigan yer maydoni	1 000	1 000
2	Dizel yonilg'i miqdori	26 317	36 000
3	Ishchi kuchi	5	5
4	Haydaladigan paxta yer	200	200

### 5-rasm. Natijalar jadvalining ikkinchi qismi. Optimal yechim uchun sarflanadigan fizik xarajatlar<sup>14</sup>

<sup>12</sup> Manba: muallif ishlanmasi

<sup>13</sup> Manba: muallif ishlanmasi

